E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

FRANSUZ VA O`ZBEK TILLARIDA ZOONIMLAR BILAN YASALGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK TAHLILI

Samandarova Nilufar Kodirovna
Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti Roman-german filologiyasi kafedrasi o`qituvchisi
Shomurodova Intizor Erkaboy qizi
Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti Fransuz tili ta`lim yo`nalishi talabasi
E-mail: shomurodovaintizor2@gmail.com

Annotatsiya
Ushbu ilmiy maqola inson qiyofasi va xarakter xususiyatlarini berishda hayvonlar nomlaridan foydalanish masalalariga bag`ishlanadi. Zoonimlar orqali inson qiyofasini ifodalashda til imkoniyatlarining kengligi ko`rib chiqiladi.Fransuz tilida zoonimlar va ularning o`zbek tilidagi muqobili berilgan. Hayvon obrazlari orqali inson qiyofasini aks ettirish, ularning xarakterlarini ochib berishda tilning so`z boyligiga qaratiladi.

Kalit so`zlar
Til, inson qiyofasi,obraz, zoonim, xarakter,obraz, ijobiy, salbiy, tashqi ko`rinish, o`xshatish, qiyoslash, muqobil, xususiyat, munosabat.

Bizga ma'lumki, bugungi kun frazeologiyasining markaziy va bahs-munozarali savoli – bu frazeologik birliklar semantikasidir. Zamonaviy frazeologiyada frazeologik birliklarning har-xil aspektlarda faol o'rganilishi kuzatiladi: semantik, grammatik, lingvomadaniy va boshqalar. Frazeologiya – til tizimining muhim darajalaridan dunyoqarashni, yashash va fikrlash tarzini, insonlar xarakteri yoki xulqini ochib beruvchi vosita hisoblanadi.

Olamda hamma narsa bir-biriga bog`liq yaratilgandek, insoniyat ham tabiat bilan chambarchas yashaydi. Kishining xatti-harakatlari, xarakteri va tashqi ko`rinishini hayvon yoki o`simlik nomlari bilan atash yoki o`xshatish buning yaqqol isbotidir. Tarixdan hozirgi kunga qadar yomon xulqli odamlar yovvoyi yirtqich hayvonlarga, yaxshi fazilatli insonlar uy hayvonlariga, sezgir, harakatchanlar ba`zi qushlarga o`xshatishi an`anaga aylanib qolgan.

Hayvonot dunyosi haqiqatning nomlari bo`lgan zoonimlar ko`pgina tillarning leksik tarkibidagi eng qadimgi semantik guruhlardan birini tashkil qiladi. Majoziy ma`nolarning rivojlanishi tufayli zooleksemalar insonning fazilatlari va harakatlarini tavsiflash uchun faol ishlatiladi.

Mazkur tezisda fransuz va o`zbek tillarida zoonimlar bilan yasalgan frazeologik birliklar semantik tahlil qilingan hamda ular ikkita til doirasida misollar orqali yoritilgan.

Tilda frazeologik birliklar o`zlarining tuzilishiga ko`ra nihoyatda rang-barang olamni o`zida namoyon eta oladi. Ayniqsa, ularning tarkibiy elementlari o`rtasida semantik bog`lanishlar turlicha munosabatlarni ifodalashi orqali ajralib turadi. Zoonimlar bilan bog`liq frazeologik birliklar inson shaxsiyatining ijtimoiy va psixologik xususiyatlari bilan bog`liq bo`lgan ko`p qirrali hodisadir. Bunday birliklar turli darajadagi uyg`unlik va semantik yaxlitlikka ega bo`lgan birikmalar bo`lib, hayvonning xatti-harakati, odatlarini kuzatish tajribasiga asoslanib, inson tomonidan berilgan sifat va

VOLUME 5, ISSUE 1, 2023

xususiyatlarning boy to`plamini tasvirlashga qodir reaksiyalar qodir reaksiyalar, tashqi ko`rinish va boshqalarni anglatadi.

Frazeologik birliklarning majoziy xususiyati uning so`zma-so`z ma`nosini o`zaro bog`lash orqali ochiladi. “*faire un travail de fourmi*”(so`zma-so`z tarjimasi: “Chumolining ishini qilmoq”) - juda ko`p sabr talab qiladigan ishni bajarmoq yoki “*être rouge comme une écrevisse*”(so`zma-so`z tarjimasi: “qisqichbaqa kabi qizil bo`lmoq”) – hayajondan qizarib ketmoq kabi frazeologik birliklardagi umumiy ma`no ularning majoziy xususiyatini ochib bergan.

Til belgilari tizimini o`rganishda milliy madaniyatning streotiplari va me`yorlarini aniqlash, dunyoni tark etishning o`ziga xos xususiyatlarini anglash dunyoni tushunish uchun muhimdir. Chunki, uning o`ziga xos xususiyatlarini “g`ayriinsoniy” xususiyatlar bilan taqqoslash “inson xususiyatlarining me`yorlari” sifatida qabul qilinadi. [1](V.N.Teliya: 241).

Fransuz tilidagi zoonimlar bilan yasalgan frazeologik birliklarning aksariyati o`zbek tilida o`z muqobiliga ega bo`lib, bunday iboralarikkala tilde ham ma`joziy jihatdan ayni ma`nolarni anglatadi. Misol qilib aytadigan bo`lsak, “être rusé comme un renard” (o`zbekcha muqobili: “tulkidek ayyor”) ya`ni u frazeologizmlarning a`zolari comme bog`lovchisi orqali o`zaro bog`lanib, tulkiga xos bo`lgan xarakterni insonga ko`chirish orqali qiyoslangan. Yoki bo`lmasa, “poser un lapin” ( o`zbekcha muqobili: quyonni rasmini chizmoq)- kim bilandir uchrashuv belgilab, u yerga bormaslik, “être doux comme un agneau” (o`zbekcha muqobili: qo`ydek yuvosh)- juda ko`ngilchan bo`lmoq, “s`entendre comme chien et chat” (o`zbekcha muqobili: it-mushuk bo`lmoq)- kelisha olmaslik, chiqishmaslik kabi ma`nolarni bildiruvchi frazeologik iboralar mavjud.

Izlanishlar natijasida xulosa qilib aytadigan bo`lsak, fransuz tilida hayvon nomlari ishtirokida yasalgan frazeologik birliklar ko’proq ijobiy xarakterni ifoda qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet havolalari ro’yxati

1. Dictionnaire francais-ouzbek. Tachkent, 2015.
2. В.Н.Телия. Русская фразеология. Москва, 1996.
3. В. Г. Гак, Ганшина К. А. “Французско - русский словарь”. Москва, 2000.
4. Рецкер Я.И. “Французско русский фразеологический словарь”. Москва, 1963.
5. Ш. Балли Общая лингвистика. Москва, 1955
6. Le Petit Robert de Poche. Paris, 2002.
7. Le Petit Larousse. Paris, 1992.
8. А. Мадвалиев. Отв. ред. Русско-узбекский словарь в двух томах. – Тошкент, 2000.
9. Ruscha-o’zbekcha lug’at. I-II jildlar. Toshkent, 1983.
10. https://www.francaisavecpierre.com

[1] В.Н.Телия Русская фразеология . М., 1996 - 241б.